

TILIMIZDA YORDAMCHI SO'ZLAR VA ULARNING O'RGANILISHI

Odamboyeva Aziza Ahad qizi

Ellikqal'a pedagogika fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Odamboyeva Nafosat Ahad qizi

Ellikqal'a Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabasi

Dosumbetova Nodira Furqat qizi

Ellikqal'a Pedagogika fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida so'zlarning guruhlarga bo'linishi va yordamchi so'zlar haqida qisqacha malumot boradi. Ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar haqida to'xtalib, ularni o'rgangan tilshunos olimlar haqida ma'lumot beriladi.

Tayanch tushunchalar: so'z, turkum, yordamchi so'z, tilshunoslik, ko'makchi, bog'lovchi ,yuklamalar

O'zbek tili turkiy tillar ichida o'zining so'z boyligi bilan ajralib turadi. O'tmishda yaratilgana asralarni o'qisak ham xalqimiz qadim-qadimdan boy lug'atga egalikiiming guvohi bo'lamiz. Ana shu badiiyat durdonalaridan keyingi avlodlarimiz ham foydalanishi uchun bu ulkan ma'naviy merosni yagona manbaa ostida tizimlashtirish lozim. Bu borada bizga hozirgi paytda eng rivojlanib borayotgan kompyuter lingvistikasi fani yordam beradi. Bu fan dunyo tillarining yashab qoluvchanligini va yanada boyishi, leksikon hajmining kengayib borishini ta'minlovchi eng mukammal hodisa ekanligi hammamizga ma'lum. Shuning uchun o'zbek tilshunos olimlari o'zbek tilining ma'lumotlar bazasini shakllantirish va uni yagona manbaa ostida birlashtirish borasida bir necha tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar.[1]

XX asrning 70- yillariga kelib o'zbek tilshunosligida so'zlarni guruhlarga bo'lish harakatlari boshlandi. So'zlar morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlari asosida mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar va oraliq so'zlar singari guruhlarga ajratilgan holda o'rganila boshlandi.

So'zlar ma'lum so'roqqa javob bo'lishi yoki bo'lmasligi, atash ma`nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga, gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelish kelmasligiga ko'ra mustaqil va yordamchi so'zlarga bo'linadi. Atash ma`noli so'zlar yoki ular o'rnida qo'llanilib, ma'lum so'roqlarga javob bo'luvchi va gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida keluvchi so'zlar mustaqil so'zlar, leksik ma`nosini yo'qotib, grammatik ma`no ifodalashga o'tgan, ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan so'zlar borki, bunday so'zlar yordamchi so'zlar deb yuritiladi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma`nolariga qo'shimcha ma`no

yuklash vazifalarini bajaradi. Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar kiradi.

Yordamchi so'zni mustaqil so'zga quyidagilar yaqinlashtiradi :

- a) shaklan alohida ajralib turish;
- b) lug'aviy ma`noning mavjudligi;
- d) ko'pincha ularning mustaqil so'zlarga yaqinlashishi, ulardan kelib chiqishi.[2]

Yordamchi so'zlar mustaqil (leksik) ma'no bildirmaydi, faqat grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi .

Gapda vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadigan so'zlar ko'makchilar deb ataladi. Ko'makchi o'zi bog'lanib kelgan so'zdan keyin kelib, so'zlar orasidagi birgalik, payt, sabab, maqsad kabi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi.

Ko'makchi ikki xil bo'ladi: 1. Sof ko'makchi 2. Ko'makchi vazifasidagi so'z (funktional ko'makchi).

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar va gap bo'laklarini bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchi deyiladi. Bog'lovchilar qo'llanishiga qarab yakka bog'lovchilar va takroriy bog'lovchilarga ajratiladi. Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra esa ikki xil bo'ladi: teng bog'lovchilar; ergashtiruvchi bog'lovchilar .

Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no ifodalash uchun qo'llanadigan yordamchi so'z yuklama deyiladi. Yuklama tuzilishi jiihatidan ikki xil: a) affiks holidagi yuklamalar: -chi, -a (-ya), -da, -u (-yu), -oq (-yoq), -gina (-kina,-qina); b) so'z holidagi yuklamalar: axir, faqat, xuddi, nahotki, hatto, hattoki[3] Yuklamalar boyicha U.Rahimov "O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Mazkur nomzodlik dissertasiyasida presuppozitsiya ifodalovchi: ham, emas, faqat, yana yuklamalar kengroq yoritib berilgan. Bundan tashqari tilshunosligimizda O.Bozorov „O'zbek tilida yuklamalarning semantik-funktional xususiyatlari“ nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Shu ma'noda so'nggi yillarda tilshunos olimlarimiz tomonidan o'zbek lingvistik milliy korpusini yaratish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda yordamchi so'zlarga ham korpusdagi leksik bazaning bir turi sifatida qarash o'rinnlidir. Chunki yordamchi so'zlar ham atash semasi bo'lmasa-da, so'z turkumlari sirasiga kiritilib (yordamchi so'zlar ham so'z maqomiga ega) o'rganilib kelinmoqda. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Xoliyorov O'ral Mengliyevich o'zbek tilida so'z turkumlarining ta'limiy korpusdagi miqdoriy statistik hisobini keltirganda umumiy 37282 ta lemmanning tarkibida yordamchi so'zlar 203 dan ortiq ekanligini aniqladi. Bu esa yordamchi so'zlar ham milliy til morfoleksikon bazasining sezilarli qismini egallaganligidan dalolat beradi. [4] Umuman olganda bugungi kunda

tilshunosligimizda so‘zlarning guruhlarga bo‘lingan har bir tarmog‘i puxta o‘rganilmoqda. Bu esa ta’lim oluvchilar uchun qulaylik yaratmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Xamroyev Sh. „O‘zbek tili mualliflik orpusininglingvistik asoslari“. Buxora, 2018.
2. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent:“Fan va texnologiya. 2009. –B. 266.
3. Mahmudjonova G. „Nomuhim so‘zlar tushunchasi va uning ahamiyati“. 2023- y
4. Shamsiddinova I. O‘zbek tili milliy korpusida yordamchi so‘zlar bazasi“ maqolasidan .2021